



# OLTIN QALAMI

Adabiy-ijtimoiy gazeta

APREL-MAY  
2026 yil  
№ 04-05  
(383-384)

Gazeta 2005 yildan chiqq boshlagan

Oyda bitta son chop etiladi

muhammad-yusuf54@mail.ru



## MUHAMMAD YUSUF IJODIGA BAG'ISHLANGAN TANLOV

berdilar.

Tadbirda tanlov g'oliblari va qatnashchilari fond tomonidan diplom, sertifikat, tashakkurnoma, pul mukofotlari, Muhammad Yusuf asarlari



TOSHKENT SHAHAR MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI JAMOAT FONDI O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti bilan hamkorlikda institut talabalari o'rtasida «Yuraginga kirib kelgan bahor» mavzusida ijodiy tanlov tashkil etdi.

Tanlov 4 yo'nalishda bo'lib o'tdi.

1. «Eng yaxshi rangtasvir asari».
2. «Eng yaxshi amaliy san'at asari».
3. «Eng yaxshi haykaltaroshlik asari».
4. «Eng yaxshi grafika asari».

Tanlov homiysi: Madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi respublika Kengashi va Muhammad Yusuf nomidagi jamoat fondi.

Tanlov so'ngida talabalarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi tashkil etildi.

6-may kuni Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida tanlov



qatnashchilari ijodiy ishlarining va shoir asarlari ko'rgazmasining ochilishi va Muhammad Yusuf xotira kechasi bo'lib o'tdi.

Ko'rgazmaning ochilishi marosimida O'zbekiston badiiy akademiyasi raisi Akmal Nur, O'zbekiston madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi respublika Kengashi raisi Otabek

O'zNNTMA Toshkent shahar hududiy bo'linmasi raisi Farrux Radjabov, Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti rektori Omonulla Salixov, jamoat tashkilotlari vakillari, yozuvchi-shoirilar, talabalar ishtirok etdilar. So'zga chiqqanlar Muhammad Yusuf nomidagi Jamoat fondining faoliyatiga yiqori baho

Musayev, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Nodirbek Sayfulayev, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari Minhojiddin Mirzo, O'zbekiston Tasviriy oyina ijodiy uyushmasi raisi Isfandiyor Latipov,

O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi Kengashi raisi Kamoliddin Ishanxodjayevning tabrigini Assotsiatsiyaning hududiy bo'linmasi raisi

to'plami va sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Marosimda

Farrux Radjabov o'qib eshittirdi va Muhammad Yusuf nomidagi jamoat fondi raisi Nazira as-Salomga topshirdi.

Respublika yozuvchilar uyushmasi mehmonlar uchun kofe-brek tashkil etdi.

Davomi 2-betda





Davomi. Boshi 1-betda

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Anjumanlar zalida tadbirning badiiy qismi «Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati» kafedrasida dotsenti Ilhom Sadikov rejissyorligida sahnalashtirilgan «Ko'nglim egasi – Vatan va Sevgi» nomli musiqiy-she'riy spektakl bilan davom etdi. Unda «Sayqal» ansamblining sehrli navolari ostida Muhammad Yusuf siyosi gavdalantirilib, shoirning rafiqasi bilan kechgan muhabbat lahzalari, ustozlarga ehtiromi va Vatan madhiga bag'ishlangan eng sara asarlari sahna ko'rinishlari orqali namoyish etildi. Dastur doirasida Muhammad Yusuf she'rlari asosida aytilgan «Mehr qolur, muhabbat qolur», «Rayhon», «Osmonimga olib ketaman», «Qora qumg'on» kabi qo'shiqlar ijrochilar tomonidan mahorat bilan kuylandi. Tadbir yakunida shoirning so'nggi she'rlari va xotirasiga bag'ishlangan «Andijon o'g'loni» nomli final qo'shig'i ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Tadbirda kelgan mehmon hofizlar – Toshpo'lat Matkarimov, Muxlisbek Berdiyev kecha fayziga fayz qo'shdilar.





## ADIBLAR XIYOBONIDA MUHAMMAD YUSUF ZIYORATI



Olimova Mashhura G'ayrat qizi, Teatr san'ati fakulteti, "Aktyorlik san'ati: qo'g'irchoq teatr aktyorligi" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi – Achilova Shaxinabonu Shodmonjonovna, Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti, Kinoteleoperatorlik" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi Xolto'rayev Sardor Xabibullo o'g'li. Tadbirda shoirning rafiqasi Nazira as-Salom, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, professor Sayyora To'ychiyeva hamda boshqalar so'zga chiqib, Muhammad Yusuf hayoti va ijodining ibrat bo'larli jihatlari, uning insoniy fazilatlarini hamda uning o'zbek she'riyatida tarixidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritdi hamda unga bog'liq bo'lgan xotiralari bilan o'rtoqlashdi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan Adiblar xiyobonida joylashgan shoir haykali poyida "Muhammad Yusuf Vatan kuychisi" deb nomlangan adabiy-badiiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir avvalida institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev so'zga chiqib, Muhammad Yusuf ijodining o'zbek adabiyoti va madaniy hayotidagi o'rni beqiyos ekanini alohida ta'kidladi. Ayniqsa, shoir she'riyatida Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat, yurtga sadoqat va milliy g'urur tuyg'ulari yuksak badiiy mahorat bilan kuylangani uning asarlarini yanada qadrligi va ta'sirchan etishini ta'kidladi. Shuningdek, Muhammad Yusuf she'riyatini ko'plab yosh iste'dodlar

xiyobonini adabiyot, ma'rifat va madaniyat maskaniga aylantirishi, har bir adib haykalini muayyan oliy o'quv yurtiga birlashtirib, bu yerda ochiq darslar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazilishi, jumladan, institutga shoir haykalining birlashtirilishi muhim ma'naviy voqea ekanligini, bu tashabbus yoshlar qalbida milliy adabiyotga hurmat va ehtiromni yanada mustahkamlashga xizmat qilishini, talabalar uchun esa o'ziga xos ruhiy-ma'naviy maktab



So'ngra institutda ta'sis etilgan "Muhammad Yusuf" ko'krak nishoni o'z egalariga taqdim etildi.

Ular bilan tanishib:

S a h n a  
nutqi kafedrasida professor v.v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) – Kadirov Ramz Turabovich, Madaniyatshunoslik mutaxassisligi 1 - k u r s magistranti – Jabborova



Mohigul Hasan qizi, Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti, Kutubxona-axborot faoliyati ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Shundan so'ng tadbirning badiiy qismiga navbat berildi. Unda institut talabalarini tomonidan Muhammad Yusufning she'rlaridan

namunalar o'qildi hamda uning so'zlari asosida yaralgan qo'shiqlar ijro etildi.



uchun ilhom manbai bo'lib, ularni ijod olamiga yetaklab kirganini ham e'tirof etdi.

Shu bilan birga, Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Adiblar

shish imkoniga ega bo'layotgani, bu esa ularning estetik didi va tafakkurini boyitishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotganini alohida qayd etdi.

## SHOIR YURTIDA TANTANA

Andijonda el suygan ijodkor, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 72 yilligi keng nishonlandi.

Anjumanda viloyat hokimi Shuhratbek Abdurahmonov, shoir va yozuvchilar, adabiyot muxlislari, o'qituvchi va talabalar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbir avvalida ishtirokchilar tomonidan shoir byusti poyiga gulchambarlar qo'yilib, uning yorqin xotirasiga ehtirom ko'rsatildi. So'zga chiqqanlar Muhammad Yusufning hayoti va ijodi, ayniqsa, uning yurtga muhabbat, insoniylik va sadoqatni ulug'lovchi she'rlari xalq qalbida chuqur iz qoldirganini alohida ta'kidladilar.

Shoir o'z asarlari orqali xalqning orzu-intilishlari, dardu armonlari va ertangi kunga bo'lgan ishonchini ta'sirchan tarzda ifoda etgan. Uning vatanparvarlik ruhidagi ijodi bugungi yosh avlod tarbiyasida ham muhim o'rin tutadi.

Bu kabi ma'naviy tadbirlar viloyatning barcha hududlarida bo'lib o'tdi.

Har yili ko'klam lolaqizg'aldoqlari, bahorning iliq nafasi mangu xotiralarni Muhammad Yusuf ixlosmandlari bilan birga Marhamatning Qovunchisiga yetaklayveradi...

Viloyat hokimi boshchiligida keng jamoatchilik vakillari, ijodkorlar, mehnat faxriylari, oqsoqollar tomonidan shoir qabri ziyorat qilinib, qur'on tilovat qildilar.

So'ng shoirning uy-muzeyida bo'lib, uning hayoti va ijodiga bag'ishlangan ko'rgazmalar bilan tanishdilar. Shuningdek, mehmonlar ijod namunalarini ham tinglashdi.





## MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI IJOD MAKTABIDA

Andijon viloyatidagi Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 72 yilligi munosabati bilan yuksak saviyada badiiy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Adabiyot va ma'naviyat bayramiga aylangan ushbu anjuman nafaqat ijod maktabi jamoasi, balki she'riyat ixlosmandlari, yozuvchi va shoirlar, yosh ijodkorlar hamda keng jamoatchilik vakillarini bir maqsad – Muhammad Yusuf ijodiga hurmat va ehtirom tuyg'usi atrofida jamladi.

Tadbir o'tkazilgan maskan bayramona ruhda bezatildi. Shoirming hayoti va ijodiga

shoiri Muhammad Yusufning umr yo'ldoshi, Nazira As-Salom, qizi Nozima Yusupova, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bo'lim boshlig'i, shoira Nargiza Asad, Yozuvchilar uyushmasi a'zolari hamda taniqli ijodkorlar Muhtarama Ulug'ova, Zebo Mirzo, Xurshida Vahobjon qizi va boshqa adabiyot ixlosmandlari ishtirok etdi. Mehmonlar tomonidan bildirilgan samimiy fikrlar tadbirga yanada mazmun va ruh bag'ishladi.

Anjumanni ijod maktabi direktori Shohistaxon Nurmatova ochib berar ekan, Muhammad Yusuf nomi nafaqat o'zbek adabiyotida,



bag'ishlangan ko'rgazmalar, uning kitoblari, turli yillarda chop etilgan she'riy to'plamlari hamda hayot yo'lini aks ettiruvchi suratlar tadbir ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, o'quvchilar tomonidan tayyorlangan "Muhammad Yusuf – xalq qalbining shoiri" nomli ijodiy burchak mehmonlar e'tiborini tortdi. Unda shoirming Vatanga muhabbat, ona, sadoqat, insoniylik va milliy qadriyatlarni ulug'lovchi she'rlari rang-barang usullarda namoyish etildi.

Tadbirda O'zbekiston xalq

balki xalq qalbida ham mangu yashashini alohida ta'kidladi. Shoir ijodi yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat va insoniy fazilatlariga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etayotgani qayd etildi. Darhaqiqat, Muhammad Yusuf she'rlari xalqona ruhi, samimiyliigi va yurakdan o'tilib chiqqan tuyg'ulari bilan millionlab kitobxonlar qalbidan joy olgan.

Tadbir davomida so'z olgan Nazira As Salom turmush o'rtog'i bilan bog'liq xotiralari, shoirming ijodiy izlanishlari hamda insoniy

fazilatlarini haqida iliq fikrlar bildirdi. U kishining ta'kidlashicha, Muhammad Yusuf she'riyatni chin dildan sevgan, xalq dardi va quvonchini yuragidan o'tkaza olgan ijodkor edi. Shoirming samimiy xotiralari tadbir ishtirokchilarini hayajonga soldi. Ayniqsa, yosh o'quvchilar shoir oilasi bilan bo'lgan uchrashuvni katta qiziqish va ehtirom bilan qarshi oldilar.

Tadbirding eng ta'sirli lahzalari o'quvchilar tomonidan ijro etilgan badiiy chiqishlarda namoyon bo'ldi. Ijod maktabi o'quvchilari shoirming eng sara she'rlarini yoddan, yuksak mahorat va his-hayajon

tayyorlangan teatrlashtirilgan chiqishlarda shoir hayotining ayrim sahnalari mahorat bilan gavdalantirildi. Musiqiy chiqishlarda esa Muhammad Yusuf she'rlari asosida yaratilgan qo'shiqlar yangrab, tadbir ishtirokchilariga unutilmas kayfiyat ulashdi. Ayniqsa, yosh ijrochilar tomonidan kuylangan vatanparvarlik ruhida qo'shiqlar mehmonlar tomonidan iliq kutib olindi.

Shoira Zebo Mirzo o'z nutqida Muhammad Yusuf she'riyatining betakror jihatlariga to'xtalib, uning ijodi xalq qalbining tarjimoni bo'la olganini ta'kidladi.



bilan ijro etdilar. "Vatanim", "Onajon", "Ulug'imsan, Vatanim", "Osmonimga olib ketaman" kabi she'rlarning o'qilishi zalda yig'ilganlarga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Har bir satrda Muhammad Yusufning xalqona ohangi, sodda va samimiy qalbi yana bir bor namoyon bo'ldi.

Shuningdek, tadbir davomida sahna ko'rinishlari va musiqiy kompozitsiyalar ham namoyish etildi. O'quvchilar tomonidan

Uning fikricha, Muhammad Yusuf she'rlari o'zbek xalqining ruhiy olamini, orzu-intilishlarini sodda, ammo nihoyatda ta'sirchan ifodalagan. Muhtarama Ulug'ova va Xurshida Vahobjon qizi ham shoir ijodining yoshlar ma'naviyatidagi o'rni haqida so'z yuritib, bunday tadbirlar yosh avlodni kitobxonlik va adabiyotga oshno etishda muhim ahamiyat kasb etishini qayd etdilar.



## Marsiyalar

# M U H A M M A D N I K O ' R A M A N

**Iqbol MIRZO**

**AKALARIMG'A**

Uch bora aylandi ajal qamchisi,  
Uchta yulduzimni falakdan uzib,  
Bugun jigarimda uchta tig' izi,  
Shavkat Rahmon, Oxun,  
Muhammad Yusuf.

Birovi shamshirday to'g'ri zot edi,  
Biri erkatoyi she'riyat bog'in.  
Birisiga mayda gaplar yot edi,  
Shavkat Rahmon,  
Muhammad Yusuf, Oxun.

Nazar yomon ekan,  
suq yomon ekan,  
Bir ariqdan suv ichib, birga o'sib,  
Ko'p ekan-da joningga  
ko'zin tikkan...  
Shavkat Rahmon, Oxun,  
Muhammad Yusuf.

Ortiqcha harorat gulni so'ldirar,  
Ortiqcha suv buzar  
daryo qirg'og'in.  
El sevgisi asta-sekin o'ldirar,  
Shavkat Rahmon, Muhammad  
Yusuf, Oxun.

Qulog'imda har birining  
so'zi, ohangi,  
Tobora bu olam qor kabi to'zib,  
Narigi dunyoga bosar posangi,  
Shavkat Rahmon, Oxun,  
Muhammad Yusuf.

**Azamat ZIYO**

\*\*\*

Aytib berolgandi chin shoirga xos,  
Ahli oshiq'larga ko'ngil xatini.  
Soddadil O'zbekim sog'ingani rost,  
Muhammad Yusufning muhabbatini.

Qizg'aldoqqa to'lsa qir-u adirlar,  
Yodga tushaverar tanish satrlar,  
She'rga oshiq yurak hamon qadrlar,  
Muhammad Yusufning muhabbatini.

Rimga alishmagan bedapoyasin,  
Jondan sevgan yurtning  
qir-u qoyasin,  
Qalam ahli bugun yaxshi anglasin,  
Muhammad Yusufning muhabbatini.

Yulduzdek chaqnadi, ham yona oldi,  
Har satri dillarga muhabbat soldi,  
Shoirman degani butkul tan oldi,  
Muhammad Yusufning muhabbatini.

**Guljamol ASQAROVA**

**VIDO AYTIMI**

Daryolardek oqib o'tgan  
og'am qani,  
Xudoyimga yoqib ketgan  
og'am qani,  
Eski uyday cho'kib qoldi  
yelkalarim,  
Boshlarimni egib ketdi  
bu g'am mani.

Qabringizdan chiqing, bir bor  
ko'ray, og'a,  
Ne bo'ldi deb o'zingizdan  
so'ray, og'a,  
Siz yo'qsizku, navo tingan,  
bu dunyoda,  
Qandoq qilib shoirman deb  
yuray, og'a?

Yalpizlarga aylanmoqqa  
shoshdingizmi?  
Bizdan ko'ra yer oldimi taftingizni?  
Qishlog'ingiz yalpizlarin  
ko'rpa qilib,  
Tuprog'iga yuzlaringiz bosdingizmi?

Ko'zingizda ko'rganlarim  
mung ekanmi?  
Shundoq og'am tuproqlarga  
teng ekanmi?  
Xudoyimning keng dunyosi  
tor keldi-ya?  
Qayiqchadek qabri shuncha  
keng ekanmi?

Ruhingiz bor bul chamanning  
gullarida,  
Yashagaysiz qizg'aldoqning  
dillarida.  
Qadamimda ko'zlaringiz  
qarab turar,  
Qandoq yuray Andijonning  
yo'llarida?

Yuragimni yarim qildi  
bu g'am axir,  
G'amga do'nib qoldi bunda  
har dam axir,  
Xaslar tirik, giyohchalar,  
toshlar tirik,  
Nega o'lar manim shoir og'am axir?

O'ldi derlar! Ko'zimda nam:  
Rozimasman!  
Ko'ksimda o't, bag'rimda g'am:  
Rozimasman!  
Xudoyimga aytdim: axir  
bu ne hukm,  
Sizni ko'mgan tuproqdanam  
rozimasman!

Siz tinch yoting, birga-birga  
gul kecharmiz,  
Kavsar gulin gulobidan ichisharmiz,  
Maysa bo'lib, yomg'ir bo'lib  
og'a-singil,  
Qiyomatda hali she'rlar o'qisharmiz.

Eski uyday cho'kib qoldi  
yelkalarim,  
Boshlarimni egib ketdi  
bu g'am mani.

**Zuhra ALIYEVA**

**MUHAMMADNI  
KO'RGIM KELAR...**

Bir she'r izlab, qo'shiq izlab  
soyga borsam,  
Yalang oyoq yurib, maysa  
joyga borsam,  
Qulog'imga shivirlaydi  
qizg'aldoqlar,  
Muhammadni ko'raman har  
qayga borsam.

Bahor tog'u toshga bag'rin  
berib yig'lar,  
Anhor to'lib, qirg'oqqa bosh  
urib yig'lar,  
Osmon parqularin  
surib-surib yig'lar,  
Muhammadni ko'raman har  
qayga borsam.

Qo'shiqlarin qaldirg'ochlar  
kuylar hamon,  
Odash so'zi har yurakda  
topgan makon,  
Kim shoirni, o'ldi, desa,  
xato, yolg'on,  
Muhammadni ko'raman har  
qayga borsam.

Ohularni suyub-suyub erkalatib,  
Yalpizlarga ko'ngil yozib,  
sirlar aytib,  
Jon qushini goh yig'latib,  
goh sayratib,  
Muhammadni ko'raman  
har qayga borsam.

Andijoncha ko'k beqasam  
choponlari,  
She'rga solgan cho'lug'lari,  
cho'ponlari,

## ELLIKQAL'AGA QAYTISH: BOLALIKDAGI MAHZUNLIKDAN AQCHAKO'LDAGI FAXRGACHA

O'sha mudhish kun...

Aniq yodimda. O'shanda juda yosh edim.  
Hali maktab o'quvchisiman.

Yozgi ta'til kunlarida ko'cha changitib  
o'ynab yurgan paytimda pochta amaki uyga  
gazeta tashlab ketdi. Uni xursandchilik ila zavq  
bilan varaqlayotganimda sevimli shoirimning  
rasmiga ko'zim tushdi. Sarlavhasini o'qib, dong  
qotib qoldim. Ha, bu o'zbek xalqining eng erka  
va buyuk shoiri Muhammad Yusuf edi. Afsuski,  
gazetaning bu sonida uning vafot etganligi  
yozilgandi.

Nega, deyman, yoshligimga borib...

Yaqindagina televizorda ko'rgandim-u.

Hali yosh, g'ayratli. Juda ham zavqlanib  
she'r o'qiyotgandi-yu. Men unga havas qilib,  
og'zidan chiqayotgan har bir so'zni maroq  
bilan tinglayotgandim. Kelajakda unga o'x-  
shab iste'dodli shoir bo'lishni dilimga tugib  
qo'ygandim.

Miyamda har xil fikrlar g'ujg'on urayotibdi.  
Maqolani bir amallab o'qib tugatdim. Orasida  
"Ellikqal'ada, ijodiy kechada she'r o'qiyotib  
yiqilibdi" – degan jumla bor edi. Eh, afsus...  
Ellikqal'a qanday joy, qanday makon bo'ldiki,  
eng sevimli shoirimizning so'nggi kuniga guvoh  
bo'lgan bo'lsa...

Shunday o'ylar, xayollar girdobida uzoq

vaqt yurganman. Ellikqal'a mening nazarimda  
judayam yomon taassurot qoldirgandi o'shanda.

O'sha mudhish kundan boshlab Muhammad  
Yusuf ijodiga yanayam ko'proq ko'ngil  
qo'rganman. Shoarning hayoti, ijodini to'liq  
o'rganib, ko'pgina she'rlarini yod olganman.  
Yoshim ulg'ayib, Toshkentga keladigan  
bo'lganimdan keyin uning oila a'zolari bilan ham  
tanishib, qadrdon bo'lib ketdim. 2014 yili garchi  
taklif etilmagan bo'lsam-da, 60 yillik yubileyiga  
borib, ishtirok etdim.

Bu yil aprel oyida Vatandoshlar jamoat fondi  
tomonidan e'lon qilingan tanlov haqida o'qib,  
unda ishtirok etishga bel bog'ladim. Orzularim



# H A R Q A Y G A B O R S A M

Inim degan she'riyatning  
Cho'lponlari,  
Muhammadni ko'raman har  
qayga borsam.

Yana kim bor Muhammadday  
Vatan sevgan,  
Barmog'iga sanchilsa ham  
tikan, sevgan,  
Tuprog'im deb jondan kechar  
ekan sevgan,  
Muhammadni ko'raman  
har qayga borsam.

Izlab bordim Marhamatga izlarini,  
Ko'ray dedim ko'rgan  
qora ko'zlarini,  
Boshga durra qildim  
durday so'zlarini,  
Muhammadni ko'raman  
har qayga borsam.

Topdim uni she'rning  
baland qoyasida,  
O'ltiribdi qizg'aldoqlar soyasida,  
Rimga alishmagan bedapoyasida,  
Muhammadni ko'rdim,  
do'stlar, Muhammadni!

**Rustam ERGASHEV**

## QADRI BILINDI

Dovrug'i yetganda har yerga borib,  
Muxlislar armonida qalbi tilindi.  
Kunimiz qandaydur sherlarga qolib,  
Shoirman deya ko'p da'vo qilindi,  
Muhammad Yusufning qadri bilindi.

Vatanni Onamdek azizim derdi,  
O'zbekni erkatoiy farzandi erdi.  
Hamma bilganicha yozganda she'rni,  
Eshitib qo'ldagi qalamlar sindi,  
Muhammad Yusufning qadri bilindi.

Andijon tomonga,  
yo'l tushib, borsam,  
Qaysi bir kitobin qo'limga olsam.  
Qaniydi ustozdek she'r yoza olsam,  
Shu zamon g'oyibdan  
ilhom kel endi.  
Muhammad Yusufning qadri bilindi.

Makoni bo'lsa ham asli unga tog',  
Bepoyon qir, adir lekin bag'ri dog'.  
Shoirmi sog'indi lolaqizgaldoq,  
Bulbul ham lol endi,  
sayrashdan tindi,  
Muhammad Yusufning qadri bilindi.

To'ymayman she'rlarin o'qib bariga,  
Bardoshim yetmaydi yurak sabriga.  
Qizlari, ayoli, muxlislariga,  
Bu porloq kunlarni shoir ilindi,  
Muhammad Yusufning qadri bilindi.

**Mirzohid BOTIROV**

Mingtepada yana bir bahor,  
Shig'ir g'o'ra tugdi o'riklar.  
Uni izlab kelar, sog'inib,  
Tuyg'uparast ko'ngli tiriklar.

Atrof gulga to'lgan, javonib,  
Yasharadi ko'zimda olam.  
Tushlarimda Ellikqal'ada  
She'r o'qiydi Muhammad og'am.

Silkinadi bedapoyalar,  
Tandirlarda ko'pchiydi shirmoy.  
Soyasi yo'q kulba tomiga,  
Naziraday termuladi oy.  
Gulbarg to'kar qizg'aldoqlari,  
Qizlarining sog'inchiday jim.  
Ichkin-ichkin tuyg'ular to'la,  
She'rlar kabi to'liqar ichim.

Oqib o'tdi necha bir suvlar,  
O'vv Toshkan-u Anjon orasi.

Har bahorda izlar bir ona,  
Erta ketgan jigarporsin.

Kim do'st bo'ldi, kimning dili pok,  
Kim ikki yuz, yaratgan hakam.  
Otasining shoira qizi,  
Duo qiling Madinani ham.

Dunyo shudir birda bor-u yo'q,  
Birda kengdir, birda tang-u tor.  
Olislarda yo'qlab she'r bitgan,  
Mirzo degan inisi ham bor.

Marhamatda yana bir bahor,  
To'y to'yladi yana Qovunchi.  
Ko'ngillarda yashar Muhammad,  
Xalqning o'g'li, Xalqning ovunchi!

**Rislig'oy HOTAMOVA**

Titramagin qizg'aldoq,  
Yig'lamagin binafsha.  
Yalpiz buncha ma'yussan,  
Mittigina yurakcha.

Qara dardkash qidirib,  
Yig'layapti muhabbat.  
Sendan battar mo'ltirab,  
Titrayapti muhabbat.

Sen sog'ingan yurakni,  
Sog'inganlar qanchadir.  
Bir alamim g'ijjakda,  
Bir alamim naydadir.

Men ham uning satrini  
Ash'orini sog'indim,  
Nurga to'lgan u aziz  
diydorini sog'indim...

Garchi dardga to'ladir,  
O'xshamadi ko'zlarim.  
O'xshamadi izhorim,  
O'xshamadi so'zlarim...

O'lmaydigan oshiq - u,  
Tinmaydigan qo'shiq - u,  
Hali qancha go'zalning  
Ko'zidan qochar uyqu.

She'r o'qib so'ng yoqimli,  
Kulmas Muhammad Yusuf,  
Yalpiz uxla, bo'lmasa,  
kelmas Muhammad Yusuf...

**Shahlo XON**

Yana Bahor keldi...  
Yam-yashil har yoq,  
Yana qaytdi qushlar,  
uyg'ondi bog'-rog'.  
Sizning nomingizni qayta xotirlab,  
Qirdan bosh ko'tardi  
Lolaqizg'aldoq.

Uning yuzlarida istirob, hijron,  
Kutar qadamingiz, ko'zlari giryon.  
So'zlashmoq, dardlashmoq  
bo'lib erta-kech,  
Izingiz topolmay, yurak bag'ri qon.

Hech kimsa sizdayin  
bo'lolmas sirdosh,  
Qizg'aldoq bir sizga egar edi bosh.  
Dillashib, sirlashib ketardi xushnud,  
Oh, endi to'kilib, ko'zlarida yosh.

O'ksima, qizg'aldoq,  
kel, so'zlashaylik,  
Yoningda do'st bo'lib  
men turaman tik.  
Axir bu foniya kim kelar, ketar...  
"Yo'q, sen bo'lolmaysan  
Muhammadchalik!"

Ochilib-so'lguncha tinmas ohlari,  
Alvon yaproqlarda qora dog'lari.  
Har ko'klam shoirmi chiqadi izlab,  
Muhammad Yusufning  
Qizg'aldoqlari.

ro'yobga chiqib, tanlovdan muvaffaqiyatli o'tdim. O'sha kuni ilk bora Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumaniga qadam ranjida qildim. U yerda bizni Nukus pedagogika institutining talabalari quchoq ochib, qarshi olishdi. Oliygo'hton ostonasiga qadam qo'yishimiz bilan sevimli shoirimiz Muhammad Yusufning haykaliga ko'zimiz tushdi. Barchamiz unga ta'zim bajo aylab, poyiga gullar qo'ydik. Bu maskandagi ko'rgazma bizlarni o'ziga maftun etdi. U yerdagi taassurotlarimni so'z bilan ifodalab berish mushkul. Judayam hayajondaman. Ko'zlarimga beixtiyor yosh to'ldi. Sababi, bundan ancha yillar avval ko'nglimdan o'tgan g'am-anduhlar yana qo'zgalganday bo'ldi. Lekin shunday tabarruk maskanda sevimli shoirimizni yod etish nasib bo'lganidan faxrlanib qo'ydim. U yerdan uzoqlashgim kelmasdi. Buyuk adibimizga ko'rsatilayotgan cheksiz hurmat-ehtiromdan boshim osmonda edi. Oliygo'hdan qaytar

chog'imizda shoir xotirasiga bag'ishlab ochilgan muzey uchun ularga alohida minnatdorchilik izhor etdik.

Tadbirimiz davom etadi. Bu yog'i endi Aqchako'l. Qoraqalpog'iston men o'ylanganday faqat dalay-u dasht, cho'l-u biyobonlardan iborat emas ekan. Aksincha...

Yosh Vatandoshlar ikkita ulovda ketayabmiz-u, atrofdagi go'zal manzarani zavq bilan tomosha qilamiz. Ha, atrof judayam go'zal, yamyashillikka burkangan. Qishloq toza, ozoda, bahavo joylar ekan.

Aqchako'l bo'yiga kelishimiz bilan bahri dilimiz ochilib, ko'ngillarimiz yorishib ketdi. Bizni o'zbekona lutf-ehtirom va milliy cholg'u asboblarimiz bo'lmish karnay-surnay sadolari ostida kutib olishganida, ular haqiqiy san'atsevar, barcha sohada eng ilg'or insonlar ekanligiga amin bo'ldik. Bir tomonda milliy sport o'yinlari va kurash musobaqalari ketayotgan bo'lsa, yana

boshqa tarafda Xorazm kuy-qo'shiqlari, raqslari avj olayotgandi. Bizning Yosh Vatandoshlarimiz ham o'z hissiyotlarini yashirolmasdan ilhomlanib, ularga qanday qo'shib ketishganini o'zlari ham sezmay qolishdi. Aqchako'l bo'yida barpo etilgan Vatandoshlar bog'i barchamizning dilimizga faxr-iftixor tuyg'ularini jamladi.

Ko'rgazmalarni tomosha qilib, katta sahna tomon yo'l oldik. Quyosh borliqni qizdirmoqda. Ammo uning harorati dilimizga qandaydir bir yoqimli his-tuyg'uni taratmoqda.

Sahna to'riga birin-ketin Zakovat intellektual o'yinining boshlovchisi Abdurasul Abdullayev, Vatandoshlar fondining boshqaruvi raisi Odiljon Sattorovlar hamda Ellikqal'a tumani hokimi ko'tarilib, dilidagi eng ezgu tilaklarini izhor etib, bizlarni Yosh Vatandoshlar forumi bilan tabriklashdi.

Ravshanbek UBAYEV,  
Qozog'iston



## МУХАММАД ЮСУФ: К Р А Й М О Й Ц В Е Т У Щ И Й,

### МОЛЬБА

Нас завернула в белые пелёнки,  
Обмыла, причесала нас сама,  
Оберегая нас от жизни вечной гонки,  
Как мать, у колыбели не спала.

Родной Узбекистан! Твои мы патриоты,  
Мы никому тебя не отдадим!..  
И вдохновляют Алпамыши нас сквозь годы,  
А от угроз любых мы за щитом твоим.

Былинку каждую твою оберегаем,  
Целуя, как весенние цветы.  
Врагов не будет в нашем отчем крае,  
Мы жизни отдадим – свободен будешь ты.

Забывшие, что соль твою вкушали,  
Презренными пусть станут навсегда,  
Тесны им будут мировые дали,  
Страна любая будет им чужда.

Кто предал Родину, завидовать те станут,  
Что процветает новая страна,  
Покаявшись, придут к Узбекистану:  
Ведь горсть земли родной  
как воздух им нужна.

Узбекистан, с тобою навсегда мы,  
Не отдадим тебя мы никогда!..  
В твоих степях нам цветами сухие травы,  
Тебе величие присуще, простота.

Мы любим так тебя, что даже степи,  
Как рай для нас – таких нет в мире стран!  
Земля твоя священная, как Мекка,  
Для нас ты словно мать, Узбекистан.  
Не отдадим тебя, Узбекистан!

### НЕТ ВОЙНЕ

Когда был создан мир? Он создан был тогда,  
Когда была услышана песнь жизни  
И свет увидеть тьма когда смогла...  
Пусть будет всё, но только не война!

Пусть не узнаю я, когда пришла весна,  
В ущельях собирать не буду я тюльпаны,  
Не буду улыбаться после сна –  
Пусть будет всё, но только не война!

Жизнь коротка моя, а может быть длинна.  
Пусть не узнаю я, что значит жить в покое,  
Работа пусть моя – недооценена...  
Пусть будет всё, но только не война!

Врагов друг в друге видя, мы живём,  
Дождёмся – мир наш превратится в пепел.  
Кому доверил я дитя своё и дом?..  
Как мир хорош! Как без войны он светел!  
Пусть будет всё, но только не война!

### УДИВИТЕЛЬНЫЙ МИР

Поэты, два великих чужеземца –  
В Герате – Навои, в Кабуле жил Бабур.  
От их имён сильнее бьётся сердце,  
Звучат набатом строки из их сур.

Задуматься не заставляет ль тайна –  
Бабур в Кабуле, в Герате Навои?..  
У вас не появилось ли желанья  
Загадку разгадать, что задали они?

Скажите, не случайность ль это?  
Игра, быть может, хитроумнейшей судьбы,  
Когда великих мира два поэта  
Землёй афганской соединены?

Нетленные правителей тех строки,  
Смотри и слушай, древний Туркестан!  
Храни ты в памяти народные истоки,  
Что завещали Навои с Бабуром нам.

И нищего к себе мы приближали,  
Кто предал нас, не причиняли им вреда.  
Един Всевышний – все мы это знаем,  
Достойных недооценили – вот беда!

Пылая, как в аду, горит земля Афгана  
И пепел облаков завесил небеса,  
Что воздвигалось миром неустанно –  
Горит! Моей земли горит краса... .

Не слышно ничего, ничто не раздаётся  
От двух великих судеб и двух душ.  
Мы сдали без оглядки, кто ценнее солнца,  
И мерзнем без светил от нестерпимых стуж.

Покоятся в соседних двух могилах,  
Хоть в жизни не встречались никогда,  
Их заменить история не в силах.  
Что скажете на это, господа?

Своих великих, люди мира, знайте  
И никогда не забывайте их.  
Бабур в Кабуле, Навои в Герате,  
Жизнь – это жизнь! Об этом и мой стих... .

### ПРОШЕДШЕМУ ВЕКУ

Век старый, век прошедший, подожди  
И дверь не закрывай ты за собой.  
Достаточно набегался, поди,  
Остановись и с нами ты постой.

Ты вот о чём подумай и скажи:  
Сломавшись, могут целыми ли стать  
Так нужные всегда карандаши?  
Есть новые, а старые где взять?

Скажи, вернутся в отчий край когда  
Гулямы – наша гордость, наша честь?  
Так много в мире всякого добра,  
Поэтов же – по пальцам перечесть!

С восторгом видел я и мой отец,  
Увидеть сможет ли мой сын родной  
Бурхана – мастерства венец,  
Других великих из эпохи той?..

Хоть продолжают путь свой воды рек  
И красотой пленяют нас цветы,  
Но вот, закончился твой день, о старый век,  
От нас уходишь безвозвратно ты.

Скажи нам, век, коль будешь уходить,  
Могила где Чулпана? Где она?  
Не прерывай связующую нить  
Меж поколениями, взрастила что страна.

Воздастся нации, хранящей имена  
Великих, светлых личностей своих!  
А то про них не знала бы страна,  
А то не знал бы мир огромный их.

Невежество не беспокоит нас,  
Достойнейшим не ведаем цены –  
Как можем приближаем смертный час,  
Ну а потом – над ними плачем мы... .

### ЕДИНСТВЕННАЯ РОДИНА МОЯ

Есть в языке моем перо и мудрость предков,  
А сердце бьётся для тебя, моя страна,  
Тоскую по тебе в пути моём я крепко,  
Всегда в душе моей ты, Родина, одна.

Пройдёт весна, за ней пройдёт и лето,  
Заполнив небо, гуси улетят.  
К любому от тебя дойдут слова, как эхо,  
К тебе, о, Родина, свой обращаю взгляд.

Есть рай на этом нашем свете белом,  
И Родине благодаренье есть,  
Навечно спаян я с тобой душой и телом,  
Ты – лучшая! Моя ты гордость,  
Родина, и честь!

Среди миров и твой есть мир прекрасный,  
Но даже и в груди твоей есть тайна, иногда.  
Как ни назвать – сестрой ли,  
матерью – мне ясно:  
Всегда в душе моей ты, Родина, одна.

Пока есть этот мир, ты лучшей будь страной,  
Ты, край Тимура, венценосным будь всегда.  
Мила ты сердцу, преклоняюсь пред тобою,  
Всегда в душе моей ты, Родина, одна.

### АНДИЖАН

В душе моей ты – поле, что в цветах всё,  
Андижан,  
Задумчивыми царскими садами путь  
мой выслан,  
По мне тоскуют, даже если не тоскую сам,  
В саду Бабура одуванчики, что  
улетают быстро.

Смотри на саженцы, которые взрастил,  
Теперь в саду они цветущими рядами,  
Верхушки их достать – не хватит роста, сил,  
Они тебе наградой стали сами.

А из ребёнка твоего, коль выйдет государь,  
Своей страны владыкою он будет.  
А выйдет если же поэт – его поманит даль:  
Уйдёт бродяжничать для познаванья судеб.

Не станут слушать, коль не побранишь,  
Не приласкав, на верный путь  
ты не наставишь.

Но если Бог не дал – на долю ропщешь лишь,  
А богом данное как сохранить не знаешь.

На мира преходящего дела ты посмотри:  
Ведь в твой дворец индеец  
приглашает в гости,  
А будь великодушнее и дружелюбней ты,  
То был бы Тадж-Махал в твоих  
объятых все.



# КРАЙ РОДИМЫЙ ЗДЕСЬ!

Tarjimalar

Прости и голову мне на плечо склони,  
В день радости души повеселись со мною.  
Бабура хочешь угостить – режь дыню мне,  
а в дни,  
когда тоскуешь по Чулпону,  
В моих объятьях будь – я их тебе открою.

\*\*\*

Я верил другу своему,  
как самому себе,  
Но друг мой обманул меня –  
кинжалом по мечте.  
Теперь мои друзья – цветы  
и листики в саду,  
О, как горит моя душа,  
когда я к ним иду.  
Кто бросит яблоко в меня,  
раздор в душе тая,  
Я тут же яблоко верну  
тому, в ком нет огня,  
Тому, уже в ком сердца нет,  
лишь камень есть в груди,  
Кто слёз не ведаёт, тому  
и с кем не по пути.  
Для тех, друзей кто предаёт,  
пусть тёмным станет мир:  
Они и солнце продадут –  
им белый свет не мил.  
Любимой верил я своей,  
она же – предала,  
В любви хоть признавался ей –  
не слушала она.  
Возлюбленные для меня  
тюльпаны гор теперь.  
О, сердце, полное огня,  
предателям не верь!  
Я брошу яблоко в того,  
в чьём сердце стынет кровь.  
Пусть станет тёмным мир тому,  
кто предаёт любовь...

## НОВОГОДНИЙ ВЕЧЕР

Уныло стало с окончанием года,  
Не знаю, чем ты, снег, меня околдовал.  
Сегодня днём ты небесам в угоду  
У жизни год ещё один украл.  
А юность что была, сегодня сказка это?  
Рубеж сороковой теперь я перейду?  
Как, руку протянув, весну достану с летом?  
Утешу душу как, я не достав весну?  
Снег, дорогой мой, этот праздник странный –  
Его смеяшь или плача провожать?..  
Быть может, проглотить и боль свою, и драму,  
А юность, что была, мне сказкою назвать?  
Скажу, что радости поменьше, чем обиды,  
И белизна волос моих белей тебя. И всё ж,  
Уходит без оглядки год – свои у жизни виды:  
В глазах улыбка, на ресницах – дрожь.  
Поторопился... Может мне вернуться  
В ту сказку юности (она прошла вчера)?..  
Ты, Новый год, не стой на перепутье,  
Захочешь – приходи: есть время до утра.  
Ты – новый спутник, ты – пособник новый,

Пусть кто-то и достиг тебя, а кто-то нет,  
Помог кому-то сбросить ты оковы,  
Не смог кому-то нужный дать совет...

И всё равно, приход твой – праздник общий.  
Теперь сказать тебе на ушко я могу?  
Я не сержусь на год ушедший больше,  
А юность, что была, то – сказка наяву...

## ЗОВ БАБУРА

Я утомился от всего  
и в результате враг  
Занять престол мой шахский смог,  
стоял что на холмах.  
Оставив Родину мою  
и реку перейдя,  
Ушёл в соседний я Афган,  
за что судить нельзя.  
Пришла удача и ушла,  
а дорогой твой друг,  
Тебя внезапно предаёт,  
войдя в порочный круг.  
Бросает камень вслед тебе,  
не покраснев ничуть,  
И, потрясённый, я ушёл,  
найдя чрез реку путь.  
Примите искренне слова  
на языке родном  
О том, что вынужден уйти  
и не вернусь потом.  
О том, что сердце у меня  
так яростно горит  
И не исполнилась мечта,  
что брал с собой в кредит.  
Я от народа своего  
вдали живу теперь,  
Тоскует, мается душа  
по Родине, поверь.  
Сегодня плачу, не стыдясь,  
О, Родина моя!  
Погибла царская душа –  
ушёл чрез реку я...  
Теперь гуляет, веселясь,  
в Багишамале люд,  
Здесь будет худо без меня,  
когда враги придут.  
О, Андижан, мой Андижан,  
с тобой прощаюсь я,  
Бабура нет, ушёл Бабур,  
через реку перейдя...

## ОТЕЦ

Мечта несбывшаяся у меня на свете этом,  
На поле, крытом травами, есть мой  
заветный лес,  
И голова моя, как мак, склонилась летом,  
И мой отец, без радостей проживший, есть.  
Горит моя душа, отца как вспоминаю,  
Горят и дни мои, года мои горят,  
Горят цветы, что на могилу возлагаю,  
И небо всё в дыму – не виден райский сад.  
Из сада рая исходя, пусть дуют ветры,  
Ты самая святая, мать-земля!  
Тобой мои мечты и мысли все согреты,  
Ласкаешь ты, родимая, меня.

К твоей груди прижавшись этой ночью,  
Не выражал своих смятений вслух,  
Дыханье жизни и своё я слушал молча,  
Здесь есть мой мир, баюкающий дух.

Эй, подлые! Когда я оступлюсь, вы ждёте,  
В вас нет сочувствия к чужим слезам,  
Вам человека не понять,  
хоть сами люди, вроде,  
Но есть мой щит – рука,  
протянутая из могилы вам...

Свободный голос я – отца наследие родного,  
Не повернусь к напевам чуждым я,  
Не разлучусь и с голосом  
до смертного порога,  
Отцом мне ставшая, есть вера у меня!

Мечта несбывшаяся у меня – её не прячу,  
Цветами полон, на широком поле  
есть мой лес,  
Где голову склонив, всё те же маки плачут,  
Край мой цветущий, край родимый здесь!

## МАТЕРИ

Твои все мысли обо мне, родная мама,  
В частичке сердца – тысячи забот,  
Хотя в Ташкенте ты и не бывала,  
Проблемы мира видишь наперёд.  
Твой сын тебя в Ташкент хоть раз привёз ли?  
А слово «праздник» в жизни есть твоей?  
Сандала жар – твои мечты и грёзы,  
И сын ли, мама, я тебе теперь!..  
Нет у меня того, что называют сердцем,  
Стихов тебе не посвящал и не дарил цветов,  
Нет девушки, кому души открыл бы дверцу,  
Да сын ли, мама, я тебе и после этих слов?..  
Молила небеса, меня хранили чтобы  
В тех путешествиях, бывал в которых я.  
Пегаса не сносились чтоб подковы,  
И впредь, прошу, благословляй меня.  
Тебе завидуют: мол, сын – поэт известный,  
Болезнь моя, поверь, не только рифмы строк,  
Не знаменитый я, поют мои хоть песни,  
Ведь знаменит лишь тот,  
по жизни кто жесток.

Пускай найдут тебя стихи,  
что посвятил тебе я,  
И руки поцелуют пусть, колени преклоня,  
Они увидят пусть увидят,  
что величием не болея,  
Что кроме них, стихов, родная матушка моя.

Узнают пусть и о здоровье тоже,  
Я понял, наконец, хоть мне и много лет,  
Что сердце без тебя – и сердцем  
быть не может.  
Теперь я сын тебе!?! Каков же твой ответ?

Rus tiliga  
Valeriy RAYXEL  
tarjimasi

## МЕHR ҚОЛУР — МУHAMMAD YUSUF XOTIRASI BARHAYOT!



yoshlar shoir xotirasiga hurmat bajo keltirib, uning she'rlaridan parchalar o'qishdi. Bu esa Muhammad Yusuf ijodi bugun ham yuraklarda yashayotganining yaqqol dalilidir.

Ellikqal'a tumanida ijodkorlarga bo'lgan e'tibor ilgari qanday yuksak bo'lgan bo'lsa, bugun ham shu ruhda davom etmoqda. Respublika miqyosidagi turli madaniy tadbirlar, adabiy uchrashuvlar va ma'rifiy loyihalar bu yerda ma'naviyatga bo'lgan e'tibor yuksak ekanini namoyon etadi.

Muhammad Yusuf aytganidek:

O'tar qancha yillar to'zoni,  
Yulduzlar ko'z yoshi samoni.  
O'tar inson yaxshi-yomoni,  
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Muhammad Yusuf o'zbek adabiyotining betakror va sevimli shoirlaridan biri. U qisqa umri davomida xalq qalbidan mustahkam joy oldi. Uning she'rlari samimiyligi, soddaligi va hayot haqiqatini teran his etishi bilan millionlab kitobxonlar mehrini qozondi.

Shoir nafaqat ijodi, balki hayoti davomida ham xalq orasida bo'lib, yurtning turli hududlarida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etgan. Jumladan, u Ellikqal'a tumanida ham bir necha bor bo'lib, ijod ahli va yoshlar bilan samimiy uchrashuvlar o'tkazgan.

olib ketdi. Ammo uning nomi va ijodi xalq qalbidan abadiy yashamoqda.

Bugungi kunda ham Ellikqal'ada shoir xotirasi yuksak ehtirom bilan yodga olinadi. Tumanda uning sharafiga o'rnatilgan byust poyiga muntazam ravishda gullar qo'yilib, she'rlari yangraydi.



Qorachug'da porlagan o'sha,  
Iqboliga chorlagan o'sha.  
Dunyoni tor aylagan o'sha,  
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Haqiqatan ham, shoirning o'zi oramizda yo'q. Ammo uning mehri, samimiy so'zlari va qablarga ko'chgan she'rlari hamisha barhayot.



Ayniqsa, 2001 yildagi tashrifi chog'ida hozirgi amfiteatr yaqinida joylashgan "Ijodkorlar bog'i" barpo etilishida ishtirok etgani ellikqal'aliklar xotirasida unutilmas voqea bo'lib qolgan. Bog' yaqinidagi kiyiklar haykali go'yo shoirning mashhur "Jayron, nega ko'zing to'la yosh..." misralariga ramziy ishoradek tuyuladi.

Afsuski, taqdir shoirni oramizdan erta

Shuningdek, shoirga bag'ishlangan muzeyda uning hayoti va ijodiga doir qimmatli materiallar, jumladan, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Orinov bilan birga tushgan tarixiy suratlar namoyish etilgan.

Yaqinda o'tkazilgan "Yosh vatandoshlar" forumi doirasida ham turli davlatlarda ta'lim olayotgan





## ELLIKQAL'A TUMANIDA "YOSH VATANDOSHLAR FORUMI"

Ellikqal'a tumanida "Yosh vatandoshlar forumi" yuqori saviyada, keng qamrovli dastur asosida tashkil etildi.

Forum Ellikqal'a pedagogika fakultetida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf byusti poyiga gulchambarlar qo'yish marosimi bilan boshlandi. Shundan so'ng ishtirokchilar shoir muzeyi bilan tanishdilar.

Tadbir Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi o'rinbosari Rajapboy Nurazizov, "Vatandoshlar" jamoat fondi boshqaruvi raisi Odiljon Sattarov, "Yuksalish" maktablar tarmog'i rahbari Muhammadali Eshonqulov hamda boshqa mehmonlar ishtirok etdi. Ularga Ellikqal'a tumani hokimi Valijan Niyazimbetov hamrohlik qildi.

Forumning keyingi manzili "Aqcha ko'l" turizm markazi bo'lib, bu yerda ishtirokchilar milliy an'analar asosida non-tuz bilan kutib olindi. Hududda sport o'yinlari, bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari hamda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining chiqishlari namoyish etildi.

Shuningdek, "Yosh vatandoshlar bog'i" barpo etilib, forum ishtirokchilari tomonidan manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Tadbir doirasida hunarmandchilik mahsulotlari, kitoblar va mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini ko'rgazmalari tashkil etildi. Mahallalar



tomonidan tayyorlangan milliy so'rilar esa tadbirga alohida fayz bag'ishladi.

Forumning tantanali ochilish marosimi "Aqcha ko'l" rekreatsion zonasidagi amfiteatrdan bo'lib o'tdi. Tadbir O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat madhiyalari sadolari ostida boshlandi.

Tantanali marosimni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi o'rinbosari Rajapboy Nurazizov ochib berdi. Shuningdek, "Vatandoshlar" jamoat fondi boshqaruvi raisi Odiljon Sattarov, "Yuksalish"

maktablar tarmog'i rahbari Muhammadali Eshonqulov, Ellikqal'a tumani hokimi Valijan Niyazimbetovlar so'zga chiqib, mazkur forum borasidagi muhim fikrlarni bildirdilar.

Tadbir davomida taniqli xonandalar hamda teatrlashtirilgan sahna chiqishlari barcha ishtirokchilarga yuqori kayfiyat ulashdi.

Mazkur forum Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlislohotlar va yangilanishlarni yosh vatandoshlarimizga yaqinroq tanishtirish, ularning Vatanga daxldorlik tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim platformaga aylandi.

Ellikqal'a tumani hokimligi  
Axborot xizmati rahbari  
Nurimova Tursungul





Xurshid DAVRON

## «YAXSHI» SHE'RI NEGA MENGA BAG'ISHLANGAN?

Ushbu she'ning menga bag'ishlanish tarixini aytib berishdan avval, bir-ikki og'iz gap aytingim keldi.

80-yillarning qaysidir yilida, hozir aniq esimda yo'q, Muhammad Yusuf bir maqolasida taxminan shunday yozgan edi: «Harbiy xizmatdan qaytib kelgan yillarim, bundoq qaragam, she'riyat maydonida Xurshid Davron-u Mirza Kenjabek javlon urishyapti. Men ham «Ulardan qayerim kam?» deb maydonga kirdim...»

Oradan yillar o'tib, suhbatlashib o'tirganimizda, gap orasida Muhammad bir paytdagi maqolasini eslab, «O'sha gapdan xafa bo'lmaganmisiz?» – deb so'rab qoldi. O'shanda: «Muhammadjon, xafa bo'ladigan gap aytmagansiz, – degandim, – Bu gapni zavq bilan aytgansiz, o'sha zavqingiz o'lmasin. Qolaversa, bu maydonga mingta Xurshid Davron-u mingta Muhammad Yusuf kirganda ham, sig'ib ketadi».

Muhammadjon bilan judayam yaqin edik, desam, aldagan bo'laman. Aniq gap shuki, bir-birimizni hurmat qilardik. Muhammadjon benihoya samimiy va ko'ngli ochiq inson

edi. «Yoshlar» telekanali bosh direktori bo'lgan yillarim u «Davron» muharririyatida ishlay boshlagan katta qizini so'rab-surishtirib turardi. Biror bir iltimos yoki himoya maqsadida emas, farzandining kasb mahorati nechog'li ekanini surishtirardi. Ochiq aytishim kerak, shoirning farzandi ham otasiga munosib bo'lishga jonjahdi bilan intilardi.

Muhammadjonning she'rlari xalqimizning ardoqli mulkiga aylandi, uning she'rlari asosida yaratilgan qo'shiqlar to bugun har bir o'zbek xonadonida yangrab turibdi. Uning bevaqt o'limi, «O'lim haq!» desak-da, hali-hanuz yuraklarni iztirobga soladi. Har baloni biladigan ustoz Said Ahmad yozgan edi: «Muhammad Yusuf tez og'izga tushdi. Biror shoir uningdek tez nom chiqarmagan, nomdor bo'lmagan. Ochiq'ini aytsam, Muhammadga ko'z tegdi. Aslini olganda asl shoirlar uzoq yashamaydilar. Ammo ortdan abadiy yashaydigan meros qoldirib ketadilar. U mana shunday o'lmas meros qoldirdi. Muhammad she'r muxlislarining yuragini o'rtab ketdi.

Endi shoirning o'zi yo'q. Ammo Muhammad Yusuf deb atalmish

she'riyati bor. Bu she'riyat aslo zavol bilmaydi».

«Yaxshi» nomli she'ning menga bag'ishlanish tarixiga kelsak, voqea bunday bo'lgan: Kunlardan bir kun bir sabab bilan o'sha paytlarda chiqadigan «Vatan» gazetasi tahririyatiga borib qolgan edim. O'sha yerda Muhammad Yusuf bilan uchrashib qoldim. U bir turkum she'rlarini gazetaga olib kelgan ekan. Suhbatlashib o'tirdik. Keyin Muhammadjon to'satdan: «Xurshid aka, «Lolaqizg'aldoq» she'rimni birinchi bo'lib Erkin A'zam bilan sizga o'qib berganman. O'shanda ko'zingizdan yosh oqqanini ko'rgan edim. Bu bolalar (Iqbol Mirzo bilan Nabijon Boqiy demoqchi) nima yozsam, maqtab-maqtab, gazetasiga bosaveradi, siz mana bu she'rlarimni o'qib ko'ring, e'lon qilishimga arziydimi-yo'qmi», – deb qoldi.

Muhammadjon o'zi yozgan she'rlarning aniq bahosini bilishini anglasam-da, «Yo'q» demay she'rlarni olib o'qiy boshladim. Ajoyib she'rlar edi. Muhammadjonga she'rlarini qaytarar ekanman: «Yaxshi» nomli she'ringizning yakuninini yanayam kuchaytirish mumkin

ekan» dedim. «Qani-qani,ayting» – dedi Muhammadjon. O'shanda taklif qilgan tahririm unga juda ma'qul keldi. O'sha joydayoq she'ning yakuniy ikki misrasini o'zgartirdi. «Endi bu she'rni sizga bag'ishlamasam bo'lmaydi» – dedi keyin. «Qo'ssangiz-chi?!» deganimga qaramay, Muhammadjon she'r sarlavhasi ostiga «Xurshid Davronga» deb yozib qo'ydi.

Bunday holat mening hayotimda oldin ham bo'lgan. Masalan, mening «Poyezddagi voqea yoki bolalikning ovozi» she'rimning yakuniy qismida Usmon aka (Usmon Azim) taklif qilgan misralar bor. Usmon akaning «Paralel chiziqlar» she'rida mening taklifim bilan kiritilgan bir jumla bor. Shavkat Rahmonning Garsia Lorkadan qilgan tarjimalarida mening ayrim tahrirlarim, mening «Qadr don quyosh» kitobimdagi bir qator she'rlarda Shavkat Rahmonning ulushi bor.

Muhammad Yusufning «Yaxshi»si uning ijodidagi eng yorqin she'rlardan biri bo'lib qoldi. Har gal uni o'qiganda, she'r asosida paydo bo'lgan qo'shiqni tinglaganimda hozir sizga aytib bergan voqeani eslayman va har gal Yaratgandan beg'ubor yurakli shoirga rahmatlar tilayman.

## MUHAMMAD YUSUFNING «ONAJON» SHE'RI TAHLILI

Andijonlik hassos shoir Muhammad Yusuf ijodini maktab partasidan, adabiyot darsligidan taniyman. Har yili lolaqizg'aldoqlar chechak ochgan, dilrabo aprel oyida, shoirning «Lolaqizg'aldoq» she'rini xirgoyi qilib, dalalarimizni kezaman.

Elimizning erka shoiri, haqparvar, xalqparvar, samimiy inson Muhammad Yusuf ijodida tiyraklik, asllik, zakiylik, halimlikning o'ziga xos betakror, komil akslanganligi she'rlarning bir o'qishdayoq o'quvchi ongida muqim o'rnashib qolishida asosiy, mustahkam poydevor vazifasini o'taydi, desam har jihatdan haq gapni aytingan bo'laman. Shoirning «Onajon» she'ri qadim bir qonun – yo'qotmoq va topmoq, topmoq birla yo'qotmoq tarhini o'zining benuqson qalami birla mahorat bilan chizgandikim, natijada bir mahfuza ash'or, bir otashqalb o'g'ilning validasiga atalgan: chinakam nazmi mansuri, shu bilan birga ahli insoniyatni ogohlantiruvchi ohorli dilnoma dunyoga keldi. Ushbu she'r avvalidan to oxirigacha, o'zgacha ovoz hamda bir qadar – kadar bilan

baqamti zorlikning haqqoniy ifodasi, desam aslo adashmayman. «SO'Z MUSAVVIRI» – Muhammadning «Onajon» she'rini o'qib, validasiga ehtiromi, ehtirosli isyon bilan bir qatorda o'kinchning olovli halqasi yanglig' misrama-misra ilojsiz o'g'ilning sog'inch dardi tobora shiddatli alangalanganiga shohid bo'ldim. Ham shoirga, ham onaizorga qo'shilib bir qur yig'laganim rost.

«Sensiz topganimdan ko'proq yo'qotdim, sen meni yupatding, seni yig'latdim, sen meni yaratding, seni tugatding». Muhammad Yusuf ushbu baytlari orqali farzandning onaga, ona mehri astoydil tashnaligini chuqur hissiy emotsiya hamda omonimik shaklda izhor etgankim, natijada o'quvchi ko'z o'ngida ona siyomosida – qadimiy eskirmas mehr, farzand obrazida – sog'inch va zorlik bo'y ko'rsatadi. Shoir sog'inch azaliy muborak tuyg'u, shu bilan birga ahli tiriklarga teng va tanish, fazlda barkamol fazilat ekanini uqtiradi. She'rda baytma-bayt ulg'ayib boradigan, diydorga tashnalik tuyg'usi bir vaqtning o'zida ham onaga, ham

farzandga, balki o'n sakkiz ming olam ahliga barobar tanish xarakter ekanligini jozibador obrazlar orqali qahramonona ko'rsatib beradi. Ayni shu jihat shoirning asl yutug'i, she'ning asrlarni qaritgan ash'ori bo'lib, tillardan-tillarga, ellardan-ellarga ko'chib, dillar tubida abadiy e'zozlanishiga sabab bo'lgan asosiy vosita hisoblanadi. Muhammad Yusuf diydorga zorligidan chunonam kadar chekadi.

Onaizordan so'ragan uzri ilhom hayajoni va alamli iqror bilan yuzlashadi. Natijada «Og'il bo'lmay o'lay, attang, ming attang. Qiz tug'sang netardi, ko'proq qiz tug'sang!...» – deya nola qiladi.

Darhaqiqat, inson bu faqir fanoga kelar ekan, nimagadir erishmoq talabida bo'lsa, nimadandir kechmog'i azal o'zgaras qonun, biroq NOILOJLIK hissi borki, odamga soyadek ergashib, har yaxshi a'molidan vos kechishiga undaydi. Shu nuqtayi-nazardan tabdil qilindanda, shoir har tomonlama haq, begunoh, ammo onaning farzand diydoridan benasibli sabab chekkan

azobini, kutish og'riqlarini tahlil qilib ko'rsak, beg'am o'g'il har qanday holda ham oqlanmaydigan gunohkordir. Har ikkala hol ham so'ngsiz alam, diydorga tashna dillar faryodi, biz yosh avlod uchun asrluk o'rnak bo'lib xizmat qiladi.

She'rni o'qib tugatar ekanman hamisha, har qaysi vaqt, har qaysi zamon bo'lmasin, farzand o'g'ilmi-qizmi, ona oldida, uning sabri va mehri oldida abadiy uzib bo'lmas qarzdorlar ekanini, ekanligimizni yana bir bor chuqur anglab yetdim.

Shu ANGLANMANING jozib sehri, farzandning samimiy sobit mehri oldida tiz cho'kaman. Ustoz ushbu nodir nazmni, boqiy sog'inch rasmini tomosha qilmoq baxtiga musharraf etganingiz uchun rahmat!

Yodingiz dilimda mangu yashaydi!

**Beg'ubor ABDULLOYEVA,**  
Buxoro viloyati Olot tumani  
19-umumta'lim maktabi  
Ona tili adabiyot fani  
o'qituvchisi.



## SENI BILGANLARGA QILAMAN TA'ZIM!

Qachon va qay mahal zaminga boqsam, qora tuproq tillodek yaltiraydi, kaftimga olsam, quyosh nurida jilolanadi.

– Mana ko'rgin, do'stim, bu oddiy tuproq emas, bu tillo ma'danli zar tuproq, deyman hayratimni yashirolmay.

– Ha-ya, – deydi do'stim ham tuproqqa lablarini bosib... Uning yuzlarida aks etayotgan: oh, nahotki oldinroq payqamagan ekanman, degan o'yini darhol uqaman.

Aziz vatandoshim, oyoqlaringiz ostida yotgan tuproqni kaftingizga oling! Undan Vatan tafti keladi...

Subhi sodiq. Yoqut yozning osoyishta, farahbaxsh tongi otayotir. Boboquyosh azim tog'lar ortidan mo'ralab, oltin kollarini taramoqqa oshiqayotir. Zar zamin samodan tushayotgan nur tolalarga burkayotir. Borliqning fusunkor tarovati qalblarga vatan ishqini solayotir.

Beixtiyor O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning yuragimdan joy olgan quyma satrlari takror-takror yodimga kelaveradi.

*Oh, ota makonim,  
onajon o'lkam...*

Unixirgoyiqilib, yumushlarimni bajarib yuraveraman. Tonggi shabnam yuzlarini yuvgan qizim menga jo'rovoz bo'ladi.

– O'zbekiston, jonim to'shay soyangga!...

So'ng o'g'lim..

Qizim beshikda erkanib yotgan nabiramni suyadi. "She'r sizga ham yoqayaptimi, asalim? Qani, Va-tan deng-chi, Vatan!, deng, o'g'lim!"

Kichkintoy talaffuzini kelishtirmay, va-va deydi-yu, do'mboq qo'lchalarini uzatib, qiqirlab kuladi.

Bir lahza o'tib-o'tmay o'g'lim

televizor murvatini buraydi. Undan ham otashnafas shoir Muhammad Yusufning g'oyat ta'sirchan, borlig'ingni hayajonga solguvchi, har bir so'zida Vatanga muhabbat tuyg'ulari to'lib-toshgan, yuraklarga mangu qo'shiqdek oqib kirguvchi shirador ovozi eshitiladi. Barchamiz harakatdan to'xtab, she'rmi jon qulog'imiz bilan eshitamiz. Ko'zlarimiz yoshlanadi. Har bir so'zi otashdek dilga yurt ishqini solib, tuyg'ularingni oltin beshikdek tebratadi-ya. Dunyoda



Vatan muhabbatidan kuchliroq mehru muhabbat yo'qdek devonai Mashrabga aylanasan, dildor vasli emas, yurt ishqiy kuydiradi qalbingiz tub-tubini.

*Parijning eng go'zal  
restoranlarin,  
Bitta tandiringga  
alishmasman men...*

Ko'z oldingizda Parijning mahobatli va rangin chiroqlari kamalakdek yog'du taratguvchi hashamatli restorani qad rostlaydi. Coniyalar o'tmay, qalbimizga behad qadrdon, onaizorimiz kundakunora dam jizzali, dam qaymoqli non yopib berguvchi, otash harorati yuraklarga singigan, chetlari biroz uchgan, hatto olov taftida qoraygan bo'lsa-da, bizga dunyodagi eng totli ne'mat – shirmoy nonlarni hadya etgan tandirimiz tomon

yuzlanamiz. Oh, shoir qanday topib aytgan-a! Ko'hna tandirimiz buncha chiroyli ekan-a! Shu on onam tandirni otashdek qizdirib, bir savat nonni uning yuzlariga quyosh parchasidek yopishtirib chiqadi. Zum o'tmay, yuzlari lolamonand qizil, hidi dimoqlarga bo'yaguvchi yangi uzilgan non isi atrofni tutib ketadi. Axir dunyoning qaysi burchida jizzali yoki do'ltali nonning qiyoslab bo'lmaydigan hidini tuygansiz? Yo'q, albatta! Bu ifor faqat bizning jannatmakon

ko'ngillarni samimiy muhabbatga to'ldirdi. Yurtsevarlarga ming bora ta'zim bajo keltirgan shoir cheksiz muhabbatini izhor etib, so'ng nadomat-la bong uradi:

Seni bilmaslarga rahmim keladi...

Bexos ko'zlarimda yosh qalqiydi. O'zini anglay olmagan, yurt qadrini bilmagan, ona mehrini tuya olmaydigan behis kimsalardan ozorlanib, shoirning o'ta ta'sirchan va xolis munosabatini shivirlab takrorlayman. Farzandini, onasini sevolmagan odam Vatanni ham sevolmaydi. Axir oppoq sochli onaizorining osoyishta umri, dilbandining kamoli Vatan bag'rida kamolotga yetadi-ku! Zotan, onang ham Vatan, bolang ham Vatan-ku, aslida... Nasib etsa, oxirat makoning ham Vatan bag'ri!

*D a r h a q i q a t ,*  
shoir o'zining har misralarida takrorlagan Vatan mehri, ardog'i hamisha qalbimizda, yurak-yuragimizda bo'lmog'i lozim.

Vatandan-da jonbaxsh, Vatandan-da buyukroq, Vatandan-da azizroq go'sha, Vatandan-da ulug'roq, qudratli so'z yo'q bu yorug' olamda. Vatan mehri, el-yurt e'zozu ulg'aytiradi kishini. Zotan, uni bir lahza tark etmoq gumrohlik, qalban seva olmaslik esa ma'nan majruhlikdir.

O'zbekistonni jonidan ortiq suygan Muhammad Yusuf vatanga bo'lgan mehrini shu qadar xalqona ifoda etdi-ki, bu yuksak mahorat ila uyg'unlashgan samimiyat izhori butun mamlakat ahli qalbini zabt etib, ko'ngillardan ko'ngillarga ko'chaveradi.

Masturaxon  
SAIDMURODOVA,  
jurnalist

yurtimizda bor! Har kuni savat-savat nonlarni dasturxonaga to'ldiruvchi qadrdon tandirlar bizning zaminda bor!

*She'r davom etadi.*

*...Seni bilganlarga  
qilaman ta'zim...*

Oh, bulbulzabon shoirim! Yurtini, dalalari-yu, hatto cho'llarini ham jonidan-da ortiq suygan Muhammadim! Bugun sening vatanga bo'lgan buyuk, ulug'vor muhabbating o'lmas satrlaring orqali qo'shiqqa aylanib, dilida yurt ishqiy jilvalanayotgan kishilarni ta'zimga undamoqda. Qalbida diyor mehri gullab, ildiz otgan har bir odam senga ta'zimda! Sen vatanni shu qadar samimiy mehr bilan kuylading-ki, sening samimiy so'zlaring

## MUHAMMAD YUSUF TAVALLUDINING



28-aprel kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetida shoirimiz Muhammad Yusuf tavalludining 72 yilligi bo'lib o'tdi. Tadbirida f.f.d., professor Gulnoza Jo'rayeva, f.f.d., dotsent Hoshimjon Ahmedov, f.f.d. (PhD) Sevinch Yoqubova kabi ustozlarimiz ishtirok etishdi. Shoirning umr yo'ldoshi Nazira as-Salom ham ishtirok etib, shoirimiz haqida davra qatnashchilariga juda ham chiroyli qilib gapirib berdi. Bundan tashqari turli xil chiqishlar: raqs, she'r,

sahna ko'rinishi (Muhammad Yusufning "Qora quyosh" dostoni asosida) mehmonlarga havola etildi.



Joriy yilning 7-may kuni Toshkent amaliy fanlar universitetida 9-may – "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan "Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida "XOTIRA AZIZ – QADR MUQADDAS" deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. Tadbir universitet taraqqiyoti yo'lida fidokorona xizmat qilgan faxriy ustozlar, professor-o'qituvchilar va xodimlarni e'zozlash, ularning mehnatini qadrlashga bag'ishlandi.

Unda universitetda munosib mehnat qilgan faxriylar, shuningdek, ayni paytda faoliyat olib borayotgan ustozlar ishtirok etdi.

Dastlab universitet rektori,



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining "O'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsent Sevinch Yoqubova boshchiligida talabalar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti akademik litseyida Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga bag'ishlangan ma'naviy-



Tadbir davomida ishtirokchilar tomonidan shoirning eng sara she'rlari ifodali o'qildi, sahna ko'rinishlari namoyish etildi hamda uning hayot yo'li haqida qiziqarli ma'lumotlar berildi. Ayniqsa, yoshlar tomonidan ijro etilgan chiqishlar yig'ilganlarda



ma'rifiy tadbir o'tkazdilar. Tadbirida shoirning umr yo'ldoshi Nazira as-Salom, f.f.d. professor S. Normamatovlar ham ishtirok etishdi.

Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbir yuqori saviyada o'tkazildi. Mazkur tadbirida shoirning boy ijodiy merosi, uning xalq qalbidan chuqur joy olgan she'rlari va Vatanga, ona tiliga bo'lgan samimiy muhabbati alohida e'tirof etildi.

katta taassurot qoldirdi.



texnika fanlari doktori, professor Umarov Abdusalom Vaxitovich nutq so'zlab, ustozlarning ilm-fan va ta'lim tizimidagi fidokorona mehnati, yosh

avlodni tarbiyalashdagi ulkan xizmatlari hamda universitet taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasini chuqur minnatdorlik bilan e'tirof etdi.

Shuningdek, ustozlik sharafiga va xotira muqaddasligi kabi yuksak qadriyatlarining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni alohida ta'kidlandi. Universitet rivoji yo'lida samarali mehnat qilgan faxriy ustozlar va xodimlarga samimiy hurmat va ehtirom ko'rsatilib, rektorning Faxriy yorlig'i va esdalik sovg'alari tantanal ravishda topshirildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakultetida o'zbek she'riyatining zabardast namoyandasi, xalqimizning ardoqli shoiri Muhammad Yusuf tavalludiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir yuksak saviyada tashkil etildi.

Tadbirni fakultet dekani Ra'no Salomova ochib berdi. Bayram davomida shoir ijodidan namunalar, sahna ko'rinishlari hamda 19-maktab o'quvchi qizlarining go'zal raqs chiqishlari namoyish etilib, barchaga ko'tarinki kayfiyat va quvonch ulashdi.

Mazkur tadbir fakultet koordinatori Asadbek Atabayev tashabbusi bilan tashkil etilib, ta'lim yo'nalishlari talabalari hamda ijodiy jamoa tomonidan puxta tayyorlandi.





## 72 YILLIGI KENG NISHONLANDI



Taniqli o'zbek shoiri, xalqning dardi, armoni va ezgu orzularini o'z ijodida samimiyat bilan tarannum etgan Muhammad Yusuf tavalludining 72 yilligi munosabati bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida adabiy-ma'naviy tadbir tashkil etildi. Mazkur tadbir adabiyotga mehr qo'ygan yoshlarni bir

maqsad atrofida jamlab, she'riyatga bo'lgan muhabbatni yanada mustahkamladi.

Tadbirda universitetning O'zbek filologiyasi fakulteti talabalari, professor-o'qituvchilari hamda kitobxon yoshlar faol ishtirok etdi. Tadbir davomida shoirdan yod bo'lib ketgan, qalblarga iliqlik baxsh etuvchi she'rlar talabalar tomonidan mahorat bilan yoddan ijro qilindi. Har bir misrada Vatanga muhabbat, ona yurtga sadoqat va insoniy tuyg'ular o'z ifodasini topdi.

Ayniqsa, talabalar tomonidan sahnalashtirilgan



badiiy chiqishlar va she'riy kompozitsiyalar yig'ilganlarga unutilmas taassurot ulashdi. Shoir ijodidan kuylangan qo'shiqlar ham tadbirga o'zgacha ruh va fayz bag'ishladi.

Tadbir yakunida faol ishtirok etgan talabalar faxriy yorliq hamda badiiy kitoblar bilan taqdirlandi.

Bu esa yoshlarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni ijod va kitobxonlikka rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur adabiy-ma'naviy tadbir Muhammad Yusuf ijodiga bo'lgan yuksak ehtiromning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi.



26-aprel – o'zbek xalqining sevimli shoiri, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavallud topgan kun.

Shu munosabat bilan

kecha tashkil etildi.

Kechaning fayzli va hayajonli bo'lishida tadbirimizga tashrif buyurgan faxriy mehmonlar – Muhammad Yusuf nomidagi jamoat fondi raisi, shoirning umr yo'ldoshi Nazira

Salomova hamda "Shuhrat" medali sohibasi, taniqli shoira Farog'at Xudoyqulovaning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etdi.

2026-yil 8-may kuni Yunusobod tuman axborot-kutubxona markazida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 72 yilligi munosabati bilan "Kitobxon onalar" loyihasi doirasida "Siz kutgan uchrashuv" nomli badiiy kecha tashkil etildi. Tadbir davomida Muhammad Yusuf nomidagi jamoat fondi raisasi, shoira Nazira as-SALOM so'zga



talabalari, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti akademik litseyi

Uchrashuv davomida "Muhammad Yusuf zamondoshlar xotirasida" kitobining taqdimoti o'tkazilib, shoira Nazira as-Salom tomonidan Yunusobod tuman axborot-kutubxona markazi fondini boyitish va kitobxonlar foydalanishi uchun yangi kitoblar sovg'a qilindi.

Tadbir qiziqarli va sermazmun tarzda bo'lib o'tdi.



TIFTda shoir xotirasiga bag'ishlangan «Ulug'imsan, Vatanim!» nomli yuksak saviyadagi adabiy-ma'rifiy

Muhammad Yusuf yodi xalqimiz qalbida mangu yashaydi!

chiqib, shoirning qisqa ammo mazmunli umri va ijodiy faoliyati, shoir bilan bog'liq unutilmas xotiralari, birga bosib o'tilgan hayot yo'llari va samimiy suhbatlari haqida iliq taassurotlar bilan o'rtoqlashdi.

Mazkur uchrashuvda "Astrobod", "Billur" MFYda istiqomat qiluvchi xotin-qizlar, Alfraganus universiteti

ifodali o'qildi.



## O‘ZJOKUDA MUHAMMAD YUSUF XOTIRLANDI



O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 72 yilligi munosabati bilan katta tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirni universitet rektori, prof. dr. Sherzodxon Qudratxo‘ja ochib berib, nutq so‘zladi.



o‘qidilar. Kuyga solib, ijro etdilar.

Muhammad Yusufning umr yo‘ldoshi Nazira as-Salom ajoyib tadbir uchun o‘z minnatdorligini bildirib, nutq so‘zladi.



Yusufning xalqchil she‘riyati, yoshlarimizni ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati haqida gapirib, “Samarqandga borsam men agar” she‘rini chuqur tahlil qilib berdi. Samarqandga borganida Abdullatifning qabrini ko‘rganini va ushbu she‘r yodiga kelib, ko‘zlariga yosh to‘lganini so‘zlab berdi. Muhammad Yusuf kitoblarini ko‘proq o‘qishlarini va tahlil qilishlarini tavsiya qildi.

Shoirning qaynotasi G‘aybulloh as-Salomning qanday katta olim ekanligi haqida, o‘zi ham ularning nevara shogirdi bo‘lgani haqida ham talabalarga ma‘lumot berdi.

Tadbirda shoir asarlaridan sahna ko‘rinishlari namoyish etildi.

Shuningdek, she‘rlarini talabalar yoddan



## TDSHUDA MUHAMMAD YUSUF SHE‘RLARI XORIJIY TILLARDA CHOP ETILDI



Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligi va O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 72 yilligiga bag‘ishlab “Muhammad Yusuf. “Vatanim” she‘ri xorijiy tillarda” va “Muhammad Yusuf. “Lolaqizg‘aldoq” she‘ri xorijiy tillarda” nomli ikki kitob nashrdan chiqdi.

Universitetning “Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika” oliy maktabi professori, filol.f.d. Xayrulla Hamidov rahbarligi va mas‘ul muharrirligida uning bosh maqolasi bilan “Yosh sharqshunos-tarjimonlar uyushmasi”da nashr etilgan kitobni Oliy maktabning “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”

ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalari Dilshoda Jumanova va Solijon Halimovlar nashrga tayyorlagan. Kitobdan shoirning Vatanparvarlik va insonga sadoqat, ijtimoiy-falsafiy mavzularida yozilgan “Lolaqizg‘aldoq” va “Vatanim” she‘rlari dunyoning 25 ta tiliga tarjimalari o‘rin olgan.

Tarjimalar universitetimiz professorlari Ulfatxon Muxibova (hindiy tiliga), Xayrulla Hamidov (turk tili), Dilfuza Ahmedova

(fors tiliga), dotsentlar Muxlisa Shoraxmedova (urdu tiliga), Nasiba Abduganiyeva (indonez tiliga), Hilola O‘ktamova (dariy tiliga)lar hamda iste‘dodli muallimlar va doktorantlar, iqtidorli talabalar tomonidan “ustoz shogird” an‘anasiga ko‘ra amalga oshirilgan. Tarjima ishiga O‘zbekistonning ko‘pchilik universitetlari-



ning taniqli professorlari ham jalb qilingan (Gulnora Mansurova – TIU (rus tiliga), Feruza Sapayeva – O‘zDJTU (turkman va qoraqalpoq tillariga), Nodir Otaqulov – O‘zMU (fransuz tiliga) va b.)

Ushbu kitob Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika” oliy maktabi jamoasining O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligi va buyuk shoir tavalludining 72 yilligiga kamtarona tuhfasini bo‘ladi, deb umid qilamiz.

### Oltin qalam

Muassis:  
Muhammad Yusuf  
nomidagi  
Jamoat fondi  
Bosh muharrir:  
Nazira as-SALOM

JAMOATCHILIK KENGASHI:  
SIROJIDDIN SAYYID, AKMAL NUR,  
ABDURASHID HASANOV,  
XAYRULLA HAMIDOV,  
MA‘SUMA AHMEDOVA

Nashrga mas‘ul: Nazira Salomova  
Sahifalovchi: Lola Soatova  
Bahosi kelishilgan narxda

Gazeta Toshkent viloyati Matbuot va axborot  
boshqarmasi tomonidan 22.12.2006 yilda 03-035  
raqami bilan qayta ro‘yxatga olingan.

Obuna indeksi 483  
Adadi 1000  
Tahririyat manzili:  
Toshkent shahri, 100011.  
Navoiy ko‘chasi, 30-uy.  
Telefon: (99) 816-58-22  
El manzil:  
muhammad-yusuf54@mail.ru

“AZMIR NASHR PRINT” MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bichimi A-3 Hajmi 2 b.t.  
Buyurtma № \_\_\_\_  
Bosmaxona manzili:  
Toshkent shahar,  
Shayxontohur tumani, Oqlon MFY,  
Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi, 8a-uy.